

**“Central Asia – 2023”: “Fan, ta’lim, madaniyat va biznesda internet va axborot-kutubxona resurslari” XVI Xalqaro konferensiyasi**

**Axborot xati**

(Konferensiya oflayn va onlayn shaklda o‘tkaziladi)

2023-yil 24-26 may

Buxoro sh.

**Konferensiyaning maqsadi:**

- axborot texnologiyalari asrida ta’lim berishning ilg‘or usullari va vositalari orqali yoshlarning mutolaa madaniyatini oshirish;
- elektron axborot resurslarini shakllantirish, kutubxona tizimlarini yaratish hamda axborot-kutubxona muassasalari, arxivlar, muzeylarda ulardan foydalanish muammolari bo‘yicha samarali tajriba almashishga ko‘maklashish;
- axborot-kutubxona xizmat ko‘rsatish sharoitlarida foydalanuvchilarning axborot madaniyati va mediasavodxonligini rivojlantirishga ko‘mak berish;
- axborot-kutubxona (avvalo, elektron) resurslardan birgalikda foydalanuvchi ijodiy birlashmalar/konsorsiumlar yaratishga, axborot-kutubxonachilik ishida yangi axborot texnologiyalarini o‘rgatish bo‘yicha o‘quv markazlarini tashkil qilish va ularning ishini yo‘lga qo‘yishga ko‘maklashish;
- kutubxonachilik va ta’lim muassasalarining Internet, elektron ma’lumotlar bazalari imkoniyatlaridan kengroq foydalanish, ularga erkin kirishni ta’minlash hamda ularni mazmunan boyitishga qaratilgan harakatlarni faollashtirish.

**Kontingent:** axborot-resurs markazlari, axborot-kutubxona markazlari va kutubxonalar, nashriyotlar, arxivlar, muzeylar rahbarlari va mutaxassislari, olimlar, ta’lim muassasalari o‘qituvchilari, AKT mutaxassislari, jamoat arboblari, vazirlik va idoralar vakillari.

**Konferensiyaning asosiy tashkilotchilari:**

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi;

Alisher Navoiy nomidagi O‘zbekiston Milliy kutubxonasi;

O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi huzuridagi “O‘zarxiv” agentligi;

Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universiteti;

O‘zbekiston davlat san’at va madaniyat instituti.

**Axborot ko‘magi:**

O‘zbekiston milliy teleradiokompaniyasi, ommaviy axborot vositalari, [www.natlib.uz](http://www.natlib.uz) veb-sayti, “INFOLIB” axborot-kutubxona jurnali, Kutubxona. UZ ilmiy-uslubiy jurnali.

**Konferensiyaning ishchi tillari:** o‘zbek, rus va ingliz tillari

Yil davomida “Central Asia – 2023: Fan, ta’lim, madaniyat va biznesda internet va axborot-kutubxona resurslari” maqolalar to‘plami chop etiladi.

Konferensiya natijalari bo‘yicha tavsiyalar yakuniy hujjatda o‘z aksini topadi.

**Barcha savollar bo‘yicha konferensiyaning tashkiliy qo‘mitasiga murojaat qilishingizni so‘raymiz:**

100017, O‘zbekiston, Toshkent shahri, Navoiy ko‘chasi, 1

Alisher Navoiy nomidagi O‘zbekiston Milliy kutubxonasi,

Ilmiy-metodik xizmati

*Faks:* +99871 239-16-58 *Telefon:* +99871 239-41-18, +99871 232-83-90

*E-mail:* [conf2023@natlib.uz](mailto:conf2023@natlib.uz) *veb-sayt:* [www.natlib.uz](http://www.natlib.uz)